PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MASOFAVIY TA'LIMDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Nosirov Bunyodjon G'offorali o'g'li
Pedagogik innovatsiyalar, professional ta'lim, boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti
Bunyodnosirov1995yilman@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida ta'lim tiizmida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar va kelgusida bajarilishi dolzarb hisoblangan masalalar qisman bayon etilgan. Shunday dolzarb masalalardan biri ta'lim jarayonlarini masofaviy tarzda tashkil etish shakli bo'lib, uni jahon standartlari asosida tashkil etish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun hukumatimiz tomonidan qilinayotgan ishlar, olib borilayotgan tadqiqot ishlari tahlil qilingan.
Kalit so'zlar: Masofaviy ta'lim, kasb-hunar, kollej, texnikum, professional ta'lim, Zoom, iSpiring, sinxron, asinxron.

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДИСТАНЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Носиров Бунёджона Ғоффорали ўғли
докторант Института педагогических инноваций, профессионального образования, управления и переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров
bunyodnosirov1995yilman@mail.ru

Аннотация: В данной исследовательской работе частично описаны кардинальные реформы, осуществленные в системе образования за последние годы, и вопросы, которые считаются актуальными в будущем. Одним из таких актуальных вопросов является форма организации образовательного процесса дистанционно, проанализирована работа, проделанная нашим правительством по его организации на основе мировых стандартов, подготовке конкурентоспособных кадров, проводимая научно-исследовательская работа.
Ключевые слова: Дистанционное образование, профессия, колледж, техникум, профессиональное образование, Zoom, iSpiring, синхронный, асинхронный.

PROSPECTS OF USING DISTANCE EDUCATION IN THE SYSTEM OF PROFESSIONAL EDUCATION

Nosirov Bunyodjon G'offorali o'g'li
Doctoral student of the Institute of Pedagogical Innovations, Professional Education, Management and Retraining and Advanced Training of Pedagogical Personnel
bunyodnosirov1995yilman@mail.ru

Abstract: In this research work, fundamental reforms implemented in the education system in recent years and issues that are considered urgent in the future are partially described. One of such urgent issues is the form of organizing educational processes remotely, the work done by our government to organize it on the basis of world standards, to train competitive personnel, and the ongoing research work have been analyzed.
Keywords: Distance education, profession, college, technical school, professional education, Zoom, iSpiring, synchronous, asynchronous.

Tarixiy taraqqiyot davrida ta'lim tizimi bir necha bosqichlarni bosib o'tgan bo'lsada, har doim ta'lim jarayonining asosiy funksional maqsad va vazifasi

yoshlarni ilm-fanga jalb qilish, yangi zamonaviy tadqiqot yo'nalishlarini ishlab chiqish, tadqiqotlar bozori talablaridan kelib chiqib ilmiy-tadqiqotlarning amaliy sifat va natijadorligini oshirish shuningdek "Hayot davomida ta'lim olish" prinsipi doirasida ta'lim oluvchilar talablaridan kelib chiqib har doim, har qanday vaqtda o'zlari uchun zaruriy bilimlarni olishlariga sharoit yaratish, ularni kerakli manbaalar bilan ta'minlash bo'lib kelgan. Bu jarayon har bir bosqichida yangi shakl va mazmun kasb etgan bo'lsada, so'nggi 10 yillik ayniqsa COVID-19 pandemiyasi sharoitida ta'lim tizimida mavjud ayrim muammolar ko'zga tashlana boshladiki, bular asosan ta'lim oluvchilarni vaziyat taqozosi bilan ta'lim muassasalarida emas uy sharoitida ta'lim olish jarayonini tashkil etish bilan bog'liqdir. Barchamizga ma'lumki pandemiya davrida ta'lim jarayonida sezilarli uzilishlar yuzaga keldi. Bu esa o'z navbatida sifatli ta'lim berish va bu jarayonning uzluksizligini ta'minlash uchun yangicha tashkiliy shakllarni talab etadi. Shu maqsadda mamlakatimizda ham ta'lim jarayonini tubdan isloh qilish, ta'limning jahon talablariga javob beradigan shakllarini zudlik bilan o'rganib chiqish va milliy ta'lim tizimimizga tadbiq qilish ayniqsa masofaviy ta'lim jarayoniga alohida e'tibor berila boshlandi. Tadqiqotlarga ko'ra masofaviy ta'lim AQSHning Garvard va Massachusets singari tarixiy va mashhur texnologiya institutlarida dastlab yo'lga qo'yilgan bo'lsada, masofaviy(online) ta'limning keng joriy qilinishi bir necha o'n yilliklarni talab qildi. Dastlab masofaviy ta'lim shunchaki pochta qutilari orqali tarqatilgan dars mavzusi ma'lumotlari hamda uy vazifalari ko'rinishida tajribadan o'tkazilgan bo'lsa, keyinchalik xalqaro internet tarmog'i ushbu ta'lim tarzini keng yoyilishiga katta zamin yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida ham raqamlashtirish jarayonlari bilan bog'liq bir muncha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqdaki, bunda axborotlashtirish sohasidagi "axborot resurslari, axborot texnologiyalari tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgan"[1] jahon talablariga javob beruvchi tarmoq va sifatli ta'lim tizimini tashkil etish davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi. Bu maqsadlar ijrosidan ko'zlangan asosiy maqsad oliy va professional ta'lim tizimi rahbar va mutaxassis hamda professor-o'qituvchilari malakasini uzluksiz doimiy oshirib borish va qayta tayyorlash orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, bunda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanishga alohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda rahbar va professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash, ularning malakasini doimiy oshirib borishning virtual metodik ta'minoti bo'yicha innovatsion metod va zamonaviy texnologiyalar yaratilmoqda va tizimga tadbiq etilmoqda. Shuningdek xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish, har qanday holda, qanday joyda bo'lishidan qat'iy nazar ta'lim oluvchilar extiyojlarini to'la qondirish, jamiyat taraqqiyotining progressiv o'sishini muntazam ta'minlashni inobatga olgan holda masofaviy ta'lim texnologiyalaridan malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida keng foydalanish ham dolzarb masalaga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malaksini oshirish tiizmini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sin Farmoni, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Reapublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

[1] O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish haqida" Qonun //https:lex.uz/doc/83472

2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonni taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-son Farmoni[2], 26 fevral 2021-yildagi Vazirlar Mahkamasining “Professional ta’lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106 son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”559-son qarori va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar masofaviy ta’lim tizimida amalga oshirilishi zarur bo’lgan ishlarning huquqiy asosi bo’lib xizmat qiladi.

Ta’lim tizimida pedaog kadrlar malakasini uzluksiz oshirib borib, xalqaro talablarga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash har doim dolzarb masala sifatida o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Ta’lim jarayoni raqamlashtirish, axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida ta’lim sifatini oshirish hamda bu jarayonda noan’anaviy ta’lim shakllari, masofaviy ta’limdan foydalanish shartlari hamda ahamiyati, videokonferensiyalar, turli media treninglar tashkil etish orqali pedagog kadrlarning boshqaruv va kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolariga oid tadqiqot ishlari U.Begimqulov, A.A.Abduqodirov, N.A.Muslimov, R.X.Jo’rayev, F.Zakirova, Sh.Sharipov, M.Fayziyeva, T,Shoymardonov, N.Xaytullayeva va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida tadqiq etilgan, mavjud muammolar aniqlanib amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan.

Amalga oshirilgan barcha tadqiqot ishlari ta’lim tizimidagi muammolar va ularning yechimini o’zida qamrab olgan bo’lib, U.Begimqulov pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishning metodik, dasturiy-texnik ta’minoti, F.Zakirova esa pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak informatika o’qituvchisining metodik tayyorgarligini shakllantirish, T.Shoymardonov tadqiqot ishlarida aynan pedagog kadrlarni malakasini oshirish jarayonlarining monitoring mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog’liq masalalarning ilmiy-nazariy jihatlarini yoritib berishgan.

O’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi hamda kasbiy kompetenligini takomillashtirish masalalari S.Beknazarov, Y.Mamatova, S.Bbobojonov, H.Kadirova, X.Nekboyev, N.R.Rustamova va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o’z ifodasini topgan. Shunday bo’lsada ta’lim jarayonlarini xalqaro talab darajasida tashkil etish, uning zamonaviy shakllarini tashkil etishga oid xalqaro yangiliklar yoki milliy ta’lim tizimimizda mavjud muammolar doimiy ravijda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni talab etadi. Mavzuga oid shunday yangi tadqiqot ishlari asosan ohirgi 5 yillikda A.Erkinov, J.Axmedov, S.Aliboyev, N.Niyazova, E.Axmedov, H.Begimulov ishlarida atroflicha o’rganib chiqilgan.

Masofaviy ta'lim shaklini tadbiq etish, unga qo’yiladigan talablar va uning ta’lim sifat ko’rsatkichlariga ta’siri hamda boshqa ta’lim muammolariga juda ko'p ishlar bag'ishlangan. Masofaviy ta’limni tashkil etish, texnologiyasi, uslubiy va kadrlar bilan ta’minlash muammolari, shuningdek Rossiya va MDH davlatlarida masofaviy ta’limni rivojlantirish masalalari A.A. Andreev, A.A. Axayan, A.M. Bershadskiy, V.P. Demkin, A.D. Ivannikov, M.I. Nejurina, E.S. Po‘lat, E.G. Skibitskiy, V.I. Soldatkin, V.P. Tixomirov, A.N. Tixonov, A.B. Xutorskiy, A.G. Chernyavskaya, S.A. Shchennikov va boshqalar ishlarida keng miqyosda tahlil etilgan.

O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi 2020-yil 19-maydagi qonuni 16-moddasida ham masofaviy ta’limga alohida urg’u berilishi uning uzluksiz ta’lim jarayonida qanchalik muhim ahamiyatga ega

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son, https://lex.uz/uz/docs/-5841063

ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi. Masofaviy ta'lim davlatimiz siyosat darajasiga ko'tarilgani uning barcha davlat dasturlarida tilga olinishi bilan ham izohlanishi mumkin. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida "…masofaviy o'qitish shaklini amalga oshirish tartibini belgilash, dasturiy-apparat kompleksini yaratish, tegishli oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga masofaviy o'qitish platformasini joriy etish…"[3] vazifalari asosiy qilib belgilanishi ham uning dolzarbligini yana bir bor asoslaydi. Mazkur vazifalarni izchillik bilan ijobiy hal qilish maqsadida 2017-2021-yillarda bir qancha ta'lim tizimiga oid ijobiy islohotlar amalga oshirildi va bu davom etib kelmoqda.

Xulosa: Professional ta'lim tizimida ham so'nggi 3 yillikda keng ko'lamli ishlab olib borilishi, xalqaro tasniflash bo'yicha 3-daraja kasb-hunar maktablari, 4-daraja kollejlar, 5-daraja texnikumlarning joriy qilinishi, shuningdek an'anaviy ta'lim bilan birga dual ta'limning ham joriy etilishi muhim qadam bo'ldi. Yaqin vaqt oralig'ida professional ta'limda ham masofaviy ta'lim shakllari(sinxron va asinxron)dan foydalanishni tadbiq etish asosiy masala sifatida qaralmoqda. Bu esa o'z navbatida o'quvchi va talabalarda kasbiy, ijtimoiy, texnik kompetensiyalarni shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatish shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malaksini oshirish tiizmini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sin Farmoni.

2. 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Reapublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni

3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son

4.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining " Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"qarori, 28.12.2017 yildagi 1026-son

5. N.A.Muslimov, M.H.Usmonboyeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'rayev "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari"–Toshkent, 2015 y .120 бет.

Internet saytlari

6.https://www.readingrockets.org/article/process-professional-development

7. https://www.cal.org/caelanetwork/profdev/framework/process

8.https://monster-evo.ru/uz/bystro/chto-takoe-distancionnoe-obuchenie-distancionnaya-forma/

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2 martdagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5953-son Farmoni //https://lex.uz/doc/4751567